

TOSHKENT METROSI LOYIHA INSTITUTLARI FAOLIYATLARI TARIXIDAN

Nurbek Matyakubov

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Toshkent metropolitenini loyihalash va qurilish jarayonlarida ishtirok etgan loyiha institutlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning shahar transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishdagi o'рни tahlil etiladi. Xususan, sobiq ittifoq davrida faoliyat yuritgan maxsus loyihalash tashkilotlari, ularning ilmiy-texnik yondashuvlari, shuningdek, mustaqillik yillarida milliy loyiha institutlarining shakllanishi va faoliyatining yangi bosqichga ko'tarilishi masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijasida Toshkent metrosi infratuzilmasining rivojlanishida loyiha institutlarining strategik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Toshkent metropoliteni, loyiha institutlari, shahar transporti, metropoliten qurilishi, injiniring, infratuzilma, urbanizatsiya, texnik loyihalash, transport tizimi.

Аннотация: В данной тезисе рассматривается история формирования и развития проектных институтов, принимавших участие в проектировании и строительстве Ташкентский метрополитен. Особое внимание уделяется деятельности специализированных проектных организаций в советский период, их научно-техническим подходам, а также трансформации и развитию национальных проектных институтов в годы независимости. В работе обоснована стратегическая роль проектных институтов в развитии транспортной инфраструктуры города Ташкента.

Ключевые слова: Ташкентский метрополитен, проектные институты, городской транспорт, строительство метро, инжиниринг, инфраструктура, урбанизация, транспортная система.

Abstract: This thesis examines the historical development of design institutes involved in the planning and construction of the Tashkent Metro. Particular attention is given to the role of specialized design organizations during the Soviet period, their scientific and technical approaches, and the transformation of national design institutions in the years of independence. The study highlights the strategic importance of design institutes in the modernization and development of urban transport infrastructure in Tashkent.

Keywords: Tashkent Metro, design institutes, urban transport, metro construction, engineering, infrastructure, urbanization, transport system.

Metropoliten transportning o'ziga xos turidir va dunyoda uning loyihalash texnologiyasi, tajribasi va bilimiga ega bo'lgan tashkilotlar juda kam. Shu sababli, institut tashkil etilgan dastlabki davrda "Metrogiprotrans" mutaxassislarining yordami beqiyos bo'lgan. Birinchi metro liniyasini loyihalash ishlarini aynan "Metrogiprotrans" mutaxassislari boshlagan va ular juda katta hajmdagi elektrotexnika ishlarini amalga oshirgan. Shuningdek, bo'lim xodimlari moskvalik mutaxassislar bilan birgalikda birinchi

liniya stansiyalarining elektrtexnika qurilmalarini loyihalash ishlarini boshlagan. Ish hajmi va turkumlari ortishi bilan bo'lim faoliyati kengaydi. Bo'limda elektrotexnika, avtomatika va aloqa kabi uchta guruh faoliyat ko'rsatadi. Bo'limning birinchi rahbari Valentin Nikolaevich Karachik bo'lgan. Uning rahbarligi ostida birinchi metro liniyasi stansiyalari uchun elektr ta'minoti, avtomatika va aloqa tizimlarini loyihalash ishlari olib borilgan. Keyingi yillarda bo'limni Anatoliy Nikolaevich Volkov boshqargan. U Toshkent metropolitenining birinchi va ikkinchi liniyalarini loyihalashda sezilarli hissa qo'shgan. Uning rahbarligi ostida ikkinchi liniya stansiyalarining elektr ta'minoti, avtomatika, telemexanika va aloqa tizimlari loyihalari ishlab chiqilgan. Shuningdek, A. N. Volkov ikkinchi liniya uchun qo'shimcha qurilmalarni loyihalashda ham katta hissa qo'shgan. Bo'limdagi dastlabki mutaxassislardan B. I. Belkin bo'lgan[1]. U katta muhandislik lavozimidan bo'limning bosh mutaxassisi darajasigacha yetgan. Uzoq yillar davomida u bo'limda faoliyat yuritib kelgan, bir nechta yosh mutaxassislar avlodini tarbiyalagan.

1972–1976-yillarda talabalik davridan bo'limga yosh mutaxassislar A. Glazova, T. Tsaturyan, A. Leuhin, A. Shchupak kelib, loyiha ishlarini o'zlashtirish jarayonida faol qatnashganlar. Shu yillar davomida ular tajriba orttirib, malakali mutaxassis bo'lib yetishgan, muhandislik lavozimidan bo'lim rahbarligigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tganlar.

Ikkinchi liniya loyahasini boshlash vaqtida elektrotexnika bo'limi xodimlari shunday malakaga ega ediki, ular ikkinchi liniya metropolitenining barcha loyiha ishlarini mustaqil amalga oshira olishgan. 1977–1989-yillarda stansiyalar uchun elektr jihozlari va yoritish tizimlari, avtomatika va telemexanika qurilmalari, yong'inga qarshi signalizatsiya boshqaruvi va boshqa tizimlar bo'yicha barcha loyiha ishlari bajarilgan[2].

“Santexnika qurilmalari, issiqlik ta'minoti va ventilyatsiyani loyihalash” bo'linmasi. Loyihachilarning asosiy vazifasi- yo'lovchilar uchun, bir necha kilometrli yopiq muhitda bo'ladigan maksimal darajadagi qulay va shinam sharoit yaratish, shuningdek, yer ostida butun ish kuni davomida ishlaydigan xizmat xodimlari uchun qulay ish sharoitini ta'minlashdan iborat bo'lgan. Bu ventilyatsiya tizimi orqali toza havo yetkazish, xizmat xonalari isitilishini ta'minlash, sovuq va issiq suv bilan ta'minlash, metropolitenning drenaj va kanalizatsiya tizimlarini tashkil etish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Shu kabi vazifalarni issiqlik-santexnika bo'limi amalga oshiradi.

Bo'limning dastlabki xodimlari qatorida S.Vonsyakovskaya, Yu. Saidova, L. Panchenko, R. Bykova, A. Shirinov nomlarini qayd etish lozim[3]. Qisqa vaqt ichida nisbatan kichik muhandis-loyihachilar jamoasi metropoliten issiqlik-santexnika muhandisi kasbini mukammal o'zlashtirdi. Bo'lim xodimlari tomonidan ko'plab turli yangiliklar va takliflar joriy etilgan. Toshkentning iqlim sharoitini hisobga olgan holda, metropoliten tunnel ventilyatsiyasi uchun yuzadan kirayotgan havoni adiabatik sovutish va namlash tizimi ishlab chiqilgan va u metropolitenning ishga tushgan ilk kunlaridan faoliyat boshlagan.

Bu yerda birinchi marta suvni purkash uchun frosunkalardan foydalanib, bug'lantirish orqali sovutish usuli qo'llanildi. Bunday tizim metropoliten tunnel ventilyatsiyasi qurilmalarida jahon amaliyotida birinchi hisoblanadi. Toshkent metropolitenida uning qo'llanilishi o'zini to'liq oqladi. Keyinchalik institut mutaxassislari havoni sovutish va namlash uchun frosunkali purkash o'rniga arzon, ishonchli va

ekspluatatsiyada energiya tejoychi rotatsion qurilmalarni qo'llashdi. Rotatsion qurilmalar mualliflari "TashZNIIEP" instituti mutaxassislari bo'ldi[4].

"Trassa va yo'lni loyihalash" bo'linmasi institutning yetakchi bo'limlaridan biri bo'lgan. Bo'lim tashkil etilganidan buyon jamoa Chilonzor liniyasi uchun ishchi hujjatlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanib kelgan. Liniya yo'nalishi va stansiyalar joylashuvi "Metrogiprotrans" mutaxassislari tomonidan belgilangan. Shu sababli nisbatan yosh jamoa uchun ishchi hujjatlarni ishlab chiqish va yer osti metropoliten liniyasini loyihalash jarayonini o'rganish ishlari birgalikda olib borilgan. Metropoliten liniyasi rejasini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirishda 2-sonli tonnelchilar otryadi bosh marksheyderi D. Kolesnikov katta yordam ko'rsatgan[5].

O'zbekiston va Yunusobod liniyalari bo'lim jamoasi tomonidan barcha bosqichlarda loyihalashtirilgan. Liniya yo'nalishini tanlash, stansiyalar, kirish va chiqish joylarini joylashtirish kabi masalalar bir nechta variantlarda ko'rib chiqilgan va ko'plab solishtirishlar hamda bahs-munozaralardan so'ng shaharsozlik kengashiga taqdim etiladigan variantlar tanlangan. Misol sifatida Yunusobod liniyasini keltirish mumkin: Lahuti — Yunusobod bo'lagi uchun liniya yo'nalishi bo'yicha beshta variant solishtirilgan.

O'zbekiston liniyasini loyihalashda eng murakkab bo'lgan bo'lak "Oybek" stansiyasidan "Chkalov" stansiyasigacha bo'lgan hudud bo'lib, uchta stansiya — Toshkent, Mashinasozlar, Chkalov — zich sharoitda joylashtirilishi kerak edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Артюшенко В. Всенародная стройка : [Ташк. метро] // Метрострой. - 1977. - № 7. - С. 30.
2. O'zMA , P-837-fond, 1-ro'yxat, 3835- ish, 23-varaq.
3. Халмурадов М. Здесь проектируют подземные трассы : [о работе фил. ин-та «Метрогипротранс», «Ташметропроект»] // Ташк. правда. - 1974. - 18 мая.
4. Шаабдурахимов Ш. Самое чистое в мире : [беседа с нач. Ташк. метрополитена Ш. Шаабдурахимовым / записал Г. Пилипенко] // Нар. слово. - 1996. - 28 мая.
5. Штерн Г. Метро: курс норд - норд-ост : [интервью нач. Ташметростроя Г. Я. Штерна / записал Ю. Казаченко] // Нар. слово. - 1992. - 28 янв.
6. Новая линия Ташкентского метро действует! : [статьи] // Метрострой. - 1980. - № 7. - С. 2-8.